

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTIDA AYOLLARNING O‘RNI VA GENDER
TENGLIGI**

Mahmudov Mirsaid Mavlon o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Nurmamatov Shahriyorjon Komiljon o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotasiya: *Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tengligi va Ayollar huquqlarini kengaytirish tashkiloti, shuningdek, BMT Ayollar sifatida ham tanilgan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirish bo‘yicha ishlovchi agentligi. BMT Ayollar tashkiloti ayollar va qizlar huquqlarini himoya qiladi va ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va LGBTIQ+ odamlariga nisbatan zo‘ravonlik kabi keng ko‘lamli masalalarga e‘tibor qaratadi.*

Kalit so‘zlar: *Bosh Assambleya, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash va Xotin-qizlar maqomi bo‘yicha Komissiya boshqaruv tuzilmasini tashkil etadi, u tashkilotning me‘yoriy siyosatining asosiy tamoyillarini belgilaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollarning o‘rni, gender tengligi statistik ma‘lumotlar va boshqalar kiradi.*

KIRISH

Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Boisi, ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o‘zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi. Boshqacha aytganda, bugun jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin.

Jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta‘lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Norvegiya kabi davlatlar islohotni bog‘chadan boshlab, 2-3 o‘n yillikda o‘ziga xos, samarali ta‘lim-tarbiya tizimini yaratish evaziga fuqarolari ijtimoiy himoyalangan, iqtisodiy barqaror mamlakatlarga aylandi.

Mamlakatimizda maktablardagi ma‘naviy-ma‘rifiy muhit, o‘qituvchi kasbining obro‘yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, innovatsion ta‘lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e‘tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning hammasini ham ilm-fanning bugungi yuqori rivojlanish darajasiga to‘la javob beradi, deb bo‘lmaydi. Demak, mamlakatimiz ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, ayniqsa, ta‘lim tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hayotiy zaruratdir.

TADQIQOT NATIJALARI

Xo'sh, bugun jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yana-da oshirish uchun nimalar qilish kerak? Sohada ko'p yillardan buyon to'planib qolgan, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni bartaraf etish qanday jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Birinchidan, mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish muhim deb, hisoblayman.

Ikkinchidan, dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yaratish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish lozim. Zero, ilm bizga havodek zarur, u yo'q joyda to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Uchinchidan, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish kerak.

To'rtinchidan, ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy drayveriga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yana-da mustahkamlash va rivojlantirishni bugun zamonning o'zi talab etmoqda.

Beshinchidan, maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur. Binobarin, ta'lim-tarbiya taraqqiyoti mamlakat ravnaqi va taqdiriga daxldor masaladir. Yana bir muhim jihat. Jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik hamisha yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan yangi kadrlar, ularning yuksak malakasi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Chunki chuqur bilim va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, intellektual rivojlangan o'g'il-qizlarni tarbiyalash, pirovardida, O'zbekistonning qisqa muddatlarda rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishini ta'minlashda maktablarda berilayotgan ta'lim-tarbiya nihoyatda muhim o'rin tutadi. Shu sababli "Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yana-da takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Prezident farmoni loyihasini ham muhokama qildik. Mazkur hujjatda Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining umumta'lim muassasasini saqlash uchun Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar miqdorini kamaytirmagan holda Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi navbatlilik koeffitsiyenti past bo'lgan umumta'lim muassasalarini tajriba-sinov tariqasida xususiy sektor vakillariga 5 yilga ishonchli boshqaruvga berish taklif etilmoqda. Bunda ishonchli boshqaruvchiga umumta'lim muassasasida ta'lim olayotgan hamda unga

biriktirilgan mikrohudud o'quvchilarini o'qitish, ularni raqobatbardoshligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va umumta'lim muassasasining binolarini ta'mirlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha investitsiya majburiyatlari yuklatiladi. Qolaversa, ishonchli boshqaruvchiga nodavlat ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish uchun umumta'lim muassasasining bo'sh turgan binolari va yer maydonlari ajratiladi. Nazarimizda, bu taklif amalga oshishi uchun ishonchli boshqaruvchiga yanayam kengroq imkoniyat berish biz uchun yakkayu yagona va eng to'g'ri yo'ldir. Sababi besh yil qisqa muddat, kamida 10 yilga berish kerak. Keyin faqat shu ta'lim muassasasi emas, hududdagi boshqa bo'sh binolarni ham ishonchli boshqaruvga berilsa, xususiy sektorning qiziqishi ortadi. Eng muhimi, ushbu ishonchli boshqaruv tizimini joriy etish tajribasini respublikaning boshqa hududlarida bittadan tumanda joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bugungi shiddatli zamon barcha sohalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish bo'yicha ham oldimizga g'oyat muhim va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Chunki taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytish joiz: ta'lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Keyingi yillarda mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fanni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shavkat Mirziyoyev Prezidentligining dastlabki yilida ilm-fan namoyandalari bilan uchrashib, bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilayotganini, zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin ekanini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, ilm-fan rivojlanmagan joyda jamiyat ham taraqqiy qilmaydi. Ilm esa har bir sohada malakali yetuk kadrlar tayyorlash orqali yuksaladi. Shu bois ham mamlakatimizda ta'lim tizimi muttasil isloh qilinmoqda. Maktabgacha ta'limdan to'liq ta'limgacha bo'lgan jarayonga yangiliklar keng tatbiq qilindi. Ta'lim tizimi oldiga ulkan talablar qo'yildi. Xususan, oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar xalqimiz uchun ayni muddao bo'lmoqda. Yaqinda davlatimiz rahbarining "Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan tanishish jarayonida xayolimdan ko'p fikrlar o'tdi. Uzoq yillar oliy ta'lim tizimi bir joyda deysinib turgani, buning oqibatida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati ham rivojlanishdan orqada qolgani haqida o'yladim. Professor-o'qituvchilar ish haqining kamligi, ilmiy izlanishlar olib borish uchun yetarli shart-sharoitlarning yo'qligi, talaba yoshlarning yetarli bilim olishlari uchun moddiy texnik baza yetishmasligi va boshqa qator omillar oliy ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelgani rost. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlari faoliyati muttasil takomillashtirilayotgani, dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikning keng yo'lga qo'yilayotgani, professor-o'qituvchilar mehnati qadr topayotgani, kunduzgi ta'lim bilan bir qatorda sirtqi, kechki ta'lim

tizimlarining yo‘lga qo‘yilgani, iqtidorli talabalar uchun tanlovlar o‘tkazilib, grantlar e‘lon qilinayotgani va boshqa ko‘plab yangilanishlar natijasida oliy ta‘lim tizimi sekin asta rivojlanish yo‘liga tushib bormoqda. Mazkur dargohda, o‘quv jarayonida talabalarda mustaqil ta‘lim olish, tizimli tahlil qilish, ijodiy fikrlash va amaliy, jumladan mantiqiy va innovatsion bilimlarni shakllantirish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda biz insoniyat taraqqiyotiga unutilmas va beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug‘vor ishlarga ruhlantirib, kamarbasta bo‘lgan fozila ayollarimiz bilan albatta faxrlanamiz. Ma‘lumki, har qanday jamiyat va davlatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli ekani uning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati va g‘amxo‘rligi bilan belgilanadi. Xalqimizni rozi qilishdek oliy maqsadga erishish uchun xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o‘qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar: “Bitta qiz bolani o‘qitsangiz – butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz”, deb bejiz ta‘kidlamaganlar. Qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo‘lib, jamiyatda hamda o‘z oilasida munosib o‘rin topishi uchun boshlagan ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz. Oliy Majlis Senati raisasi Tanzila Narbayeva Parij shahrida bo‘lib o‘tgan gender tenglik masalalariga bag‘ishlangan “Tenglik avlodi” xalqaro forumida ishtirok etdi. Forumda 2030-yilgacha O‘zbekistonda gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlangani ta‘kidlandi. Tadbir doirasida 100 dan ortiq virtual tadbirlar o‘tkaziladi va yakunida gender tenglikni tezlashtirish dasturi qabul qilindi. Fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikda Fransiya va Meksika raisligidagi “BMT-Ayollar” tuzilmasi tomonidan o‘tkazilayotgan tadbirda xorijiy davlatlar rahbarlari, jahon parlamentlari, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillari, yosh yetakchilar va xususiy sektor vakillari ishtirok etib, gender tenglik bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini berdilar. Shuningdek, “ayollarni rahbarlik lavozimiga ko‘tarish, ularning reproduktiv salomatligini mustahkamlash, bandligini ta‘minlash hamda tazyiq va zo‘ravonlikdan davlat tomonidan himoya qilish bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda, muhtojlarni uy-joy bilan ta‘minlash dasturi amalga oshirilayotgani” haqida to‘xtalib o‘tildi, deyiladi xabarda.

MUHOKAMA

Ta‘kidlanishicha, “Tenglik avlodi” forumida ko‘p qirrali harakatlar koalitsiyalari yaratildi, gender zo‘ravonlik, iqtisodiy adolat, reprovktiv huquqlar va salomatlik, iqlim sohasida adolatni qo‘llab quvvatlash uchun xotin-qizlar yetakchiligi bo‘yicha aniq va o‘lchanadigan natijalarga besh yil ichida erishish uchun ular hukumatlar, fuqarolik jamiyati hamda xususiy sektorni birlashtiradi. Koalitsiyalarga 30 ga yaqin mamlakat va 70 dan ortiq turli tuzilmalar, shu jumladan BMT agentliklari, fuqarolik jamiyati

muassasalari, yoshlar uyushmalari, xususiy korxonalar va davlat xayriya tashkilotlari, birlashgan koalitsiyalar qoʻshilgan. Toʻgʻri, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan Oʻzbekistonning islohatlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotganligi ayni haqiqatdir. Gender–xotin-qizlar va erkaklar oʻrtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, taʼlim hamda ilm-fan sohalarida namoyon boʻladigan ijtimoiy jihati koʻrsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining oʻz orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir hil imkon berish kerakligini ilgari suradi, xolos. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining taʼminlanishidir.

XULOSA

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki qadimgi yunon faylasuflari Suqrot, Arustu, Aflotun kabi qadimgi yunon olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan. Eng yaxshi qonunlari sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Erkak va ayollar tengligi gʻoyasini yunon olimi Antifont oʻz asarlarida qoʻllagan holda: “Tabiat barchani :ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi”, deb taʼkidlangan. Sharq qomusiy olimlardan Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asari tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan. 1791-yil Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasi ilk bor ayollarning erkin fikrlash va oʻz fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi eʼtirof etilgan. Gender tengligining huquqiy rivojiga eʼtibor beradigan boʻlsak, eng avvalo, gender tengligining huquqiy asoslari xalqaro va milliy qonunchilikni tarixiy-nazariy va huquqiy jihatdan tahlil etishimiz joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Ergasheva.G “ Turli tillar tizimida gender terminalogiyasining shakllanishidagi lingvistik va ekstralingvistik omillar” dissertatsiya DS, Toshkent 2018 y.
2. K.R. Aliyeva “Oʻzbekiston Respublikasida gender tengligini taʼminlashning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari” ilmiy ishi, Toshkent 2019 y.
3. S.Hamdamaova “Gender tushunchasi va uning asosiy mohiyati”, Fargʻona 2020 y.
4. Karimov I.A “ Istiqlol va maʼnaviyat”, Toshkent, 1994 y.
5. Karimov I.A "Yuksak-maʼnaviyat yengilmas kuch " Toshkent,2007 y